

EKOLOGIK FAOL MODDALAR VA ANTIOKSIDANTLARGA BOY BO'LGAN GOLUBIKA KO'CHATLARINI YETISHTIRISH

Xakimov Shaxbozbek Shavkatbek o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Magistranti

Usmonov Mirzohid Sobirjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko'plab foydali xususiyatlarga ega bo'lgan golubika ko'chatlarini yetishtirish, ko'chatlarga shakl berish va sug'orish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Golubika, agrotexnika, ko'chat, sug'orish, shakl, ekish

Abstract

This article will give you detailed information on how to grow, shape and irrigate blueberries, which have many useful properties.

Key words: Blueberries, agrotechnics, seedlings, irrigation, form, planting

Golubika juda ham foydali va mazali rezavor meva, tarkibida ko'p miqdorda qimmatbaho vitamin va minerallar mavjud. Golubika mevalari tarkibida 8% gacha qand moddalar, 2,7% gacha organik kislotalar, 0,6% gacha pektin moddalar, 1% gacha oqsil, 1,6% gacha kletchatka, 63 mg% gacha C, 0,02 mg% gacha B1, 550 mg% gacha PP vitaminlar, 0,25 mg% gacha karotin bor.

Golubika mevalari fiziologik faol bo'lgan fenol birikmalariga boy. Flavanollar (bioflavanoidlar), P-vitamin kabi ta'sir etuvchi moddalar qon tomir kapilyarlarining o'tkazish xususiyatlarini yaxshilaydi, tomirlar elastikligi va mustahkamligini oshiradi, C vitaminining o'zlashtirilishiga yordam beradi, oksidlanish-tiklanish jarayonida ishtirok etadi, ba'zi ichki sekretsiya bezlari ishini boshqaradi (birinchi o'rinda qalqonsimon bezning). C vitamini bilan bir paytda qabul qilganda ularning ta'siri samarasi yanada ortadi.

Golubika ko'chatlari vegetativ usulda qalamcha, parxish va ona ildizdan ajratib olish usullarida ko'paytiriladi. Golubika ko'chatini yetishtirishning ushbu usullari bilan butaning ildiz va ildizpoyali novdalari, hamda bir yoshli yangi novdalaridan foydalaniladi. Golubika ko'chatlariga qalamcha tayyorlash uchun novdalar dekabr va mart oylarida kesib olinadi. Buning uchun bir yillik yaxshi pishgan novdalarni kesib olish kerak bo'ladi. Golubika bu juda qiyin ildiz otadigan o'simlik, shu sababli ekishdan oldin qalamchalarning ildiz hosil qilish qobiliyatini oshirish uchun ularning pastki qismiga ishlov berish uchun maxsus ildiz otish vositalaridan (stimulyatorlardan) foydalanish tavsiya etiladi.

Qalamchalar issiqxonada maxsus tayyorlangan tuproqda ildiz otadi. Issiqxonada taxtalardan eni bir metr bo'lgan to'rtburchak ramkalar yasash kerak va uni toza chirindi, chirigan go'ng, tayyor kompost va qum aralashmasi bilan to'ldirish kerak. Golubikaning qalamchalari issiqxonada tayyorlangan maxsus joyga sxemaga ko'ra 5x5, 5x7, 5x10 yoki 10x10 sm ga ekiladi. Sxemadagi qalamchalar orasidagi masofa, ildiz otgan qalamchalarni tuvaklarga ko'chirib o'tqazishgacha vaqt davomiyligiga bog'liq. Qalamchalar ekilishi bilan substrat qondirib sug'oriladi. Ushbu maxsus joylarga simli yoylarni o'rnatib plyonka va quyosh nuridan saqlash uchun sponbond (maxsus to'r) bilan o'rab, termos hosil qilish kerak.

Golubika qalamchalarining ildiz otish jarayoni kamida 2 oy davom etadi. Shu vaqt ichida qalamchalar sug'orishni, shamollatishni, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishni talab qiladi. Bundan tashqari, qizib ketish va kuchli sovushning oldini olish uchun issiqxonada harorat rejimini kuzatib borish kerak. Qalamchalar ildiz otganidan keyin sim yoylar, ustidagi plyonkalar va spanbond olib tashlanishi va yosh o'simliklar muntazam ravishda sug'orilishi hamda oziqlantirilishi kerak.

Mamlakatimizda uzum, anor ko'chatlarini ko'paytirish va yangilashda ishlatiladigan parxish usulini barcha qishloq fuqarolari bilsa kerak. Xorij adabiyotlarida parxish usulini "amerika usuli" deb ham ataladi. Bu jarayon uzoq vaqt davom etadi va sizga bir nechta yangi ko'chatlarni olish imkonini beradi. Bu usul bilan yerga butaning alohida shoxlarini yotqizish va uni uchki novdasini ochiqda qoldirgan holda aralashmali tuproq bilan yaxshilab ko'mish va doimiy namlab turish kerak. Parxish qilingan ko'chatlarda 1-2 yildan keyin ildiz paydo bo'lishi mumkin. Shundan so'ng, ildizli novdalardan bir nechtasini onalik tupidan ajratib, yangi joyga ekib parvarishlash mumkin.

Ekish uchun sog'lom va standart ikki yillik tuvaklarda yetishtirilgan yopiq ildizli ko'chatlar tanlanadi. Ko'chatlar bahor yoki kuz oylarida ekiladi. Bir gektar maydonga kamida 3000 tup ko'chat ekiladi. Yosh ko'chatlarni ekish uchun shamolsiz, quyosh nuri yaxshi tushadigan joyni tanlash muhim. Quyosh issiqligi va nurlari ta'sirida o'simlik yaxshi o'sadi, mevalari shirin, butalar sog'lom bo'ladi.

Ko'chat ekish bo'yicha ko'rsatmalar:

Yer tanlash, yerni ekishga tayyorlash, o'g'it qo'llash, ishqorlilik darajasini aniqlash, qazish, yumshatish ishlari o'tkaziladi.

Xandaqlar diametri 1m, chuqurligi 0,5 m, ularning orasidagi masofa 1,5 m bo'lgan holda qaziladi. Ko'chat ekiladigan yer 50 sm chuqurlikda kovlanadi va eng tagiga yaxshi drenaj holatini yaratish uchun 5-10 sm qalinlikda mayda shag'allar solinadi, ustidan soz tuproq, torf, gumus yoki chirigan go'ng, agroperlit, daryo qumidan tashqari mineral va organik o'g'itlar qo'shib tayyorlangan aralashma solinadi.

Quyosh nuri va shamol yo'nalishiga qarab ko'chatlarni to'g'ri joylashtirish kerak. Ko'chatlarni parvarish qilish uchun ishlatiladigan agregat va mexanizmlarni xisobga olgan xolda qatorlar orasidagi masofa 3,0 m dan 4,0 m gacha bo'lishi mumkin. Qatoridagi butalar orasidagi masofa nav xususiyatlariga bog'liq. Kam o'sadigan navlar bir-biridan 0,6 m masofada, o'rtacha va kuchli o'sadigan 0,8-1,2 m masofada ekiladi. Yirik mevalarni olish va yillik shakl berish uchun butalar orasidagi qatorning optimal masofasi 1,0 m bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Xandaqqa 5 litr suv quyib, o'rtasiga bir tup ko'chat qo'yish, bo'sh joyni avvaldan tayyorlangan maxsus aralashma bilan to'ldirish, buta ildizining atrofidagi yerni bir oz zichlab qo'yish kerak.

Tuproqning ishqor darajasini oshirish uchun kimyoviy vositalardan foydalanishda havfsizlik qoidalariga rioya qilish kerak.

Agar yer maydoni golubika ekish va parvarishlash uchun belgilangan talablarga umuman javob bermasa, bu holda 30-50 litr hajmli tuvaklarga ekan holda parvarishlash hamda yetarli miqdorda uzoq yillar davomida hosil yetishtirish mumkin.

O'simlikni o'g'itlash. Golubikani o'g'itlashda gektariga ammoniy sulfat 90 kg, superfosfat 110 kg va kaliy sulfat 40 kg mineral o'g'it sarflanadi. Mineral o'g'itlarni ehtiyotkorlik bilan aralastirib, bahorda buta tagiga solish lozim. Asosiy shart shuki, mineral o'g'itlardan kaliy xloridni ishlatish tavsiya etilmaydi, u o'simlikni quritishi mumkin.

Shakl berish. Ko'chatlarga o'z vaqtida shakl berish butalarni parvarish qilishda muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Uchinchi mavsumdan boshlab butaning yaxshi o'sishi uchun sanitar kesib shakl berish amalga oshiriladi. Shakl berish natijasida qurigan va shikastlangan novdalar olib tashlanadi, hamda butaning shoxlari bir oz siyraklashtiriladi. Shakl berish natijasida buta estetik sog'lom buta ko'rinishini oladi.

Sug'orish. Golubika butalari suvga talabchan bo'lgani bois, yozgi mavsumda tuproqning qurib qolishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Xandaqlar doimo nam bo'lishi kerak, ammo xandaqlarda suv ko'llab qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Sug'orish uchun qulay vaqtlar – ertalab va kechqurun. Voyaga yetgan butaga havoning issiqlik holatiga qarab kuniga 5 litrgacha suv kerak bo'ladi. Sug'orish mayda tomchi purkash (yomg'irlatish) usulida yoki butaning ostidagi tuproqni tomchilatib sug'orish usulida amalga oshiriladi.

Qator oralariga ishlov berish. Glubika ekilgan maydonni muntazam begona o'tlardan tozalab borish kerak. Qator oralariga ishlov berish va begona o'tlardan tozalash lozim. Ularni yo'qotish uchun 2-3 marta kultivatsiya yordamida tuproq yumshatiladi va mexanizmlar yordamida ishlov berilib, begona o'tlardan tozalanadi.

Hosilni yig'ib olish. Glubika mevalarining pishish davomiyligi 1-1,5 oy davom etadi. Turning xilma-xilligiga va iqlimga qarab, bu holat may-iyul yoki iyul-avgust oylarida sodir bo'ladi. Ertapishar navlar mayning birinchi

o'n kunligidan boshlab, kechpishar navlarida iyul oyining 2-dan 3-dekadalariga qadar o'rta va to'la pishib yetiladi. Har bir navning pishib yetilish davrida 3 martadan 5 martagacha meva hosili terib-yig'ib olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xayitov A.A. O'zbekiston iqlim sharoitida aholi tomorqalari va sanoat darajasida golubika ko'chatlarini yetishtirishni yo'lga qo'yish, butalarini parvarishlash va rezavor mevalar yetishtirish bo'yicha qo'llanma. Toshkent. 2020
2. Sachivko T.V. "Оценка сортов голубики в коллекционном питомнике ботанического сада УО БГСХА". 2018
3. Agrobank tomonidan tayyorlangan "100 kitob" to'plami